



MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI VA IJTIMOYIY TARMOQLAR

Eshnazar Jabborov

DTPI dostent PhD

eshnazarjabborov@gmail.com 94-205-78-18

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377968>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ma'rifatchilik adabyoti g'oyalari va ijtimoiy tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'lovchilik ularning zamonaviy jamyatdagi o'rni va ta'siri tahlil qilishga qaratilgan. Maqolaning asosiy maqsadi – ma'rifiy g'oyalarni ijtimoiy tarmoqlar orqali samarali tarqatish imkoniyatlarini o'ganish shuningdek, bu jarayonda yuzaga kelish mumkin bo'lgan muammolar va ularning yechimlarini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida ma'rifatchilik adabiyotining asosiy tamoyillari va O'zbekistondagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tendensiyalari olingan. Maqola doirasida ma'rifiy kontentni yaratish va uni ijtimoiy tarmoqlarda ommalashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi, yoshlar ongiga ma'rifiy g'oyalarni singdirishda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: ma'rifatchilik, ijtimoiy tarmoqlar, bilim, taraqqiyot, madaniyat, ma'naviyat, kurashish choralari, ma'rifiy zamonaviy yondashishlar, adabiyot.

Аннотация: Данная научная статья направлена на анализ взаимосвязи идей литературы Просвещения и социальных сетей, их роли и влияния в современном обществе. Основная цель статьи - изучить возможности эффективного распространения идей Просвещения через социальные сети, а также показать проблемы, которые могут возникнуть в этом процессе, и пути их решения. В качестве объекта исследования взяты основные принципы литературы Просвещения и тенденции использования социальных сетей в Узбекистане. В статье рассматриваются актуальные вопросы создания образовательного контента и его популяризации в социальных сетях, а также предлагаются предложения по эффективному использованию социальных сетей в привитии образовательных идей в сознание молодежи.

Ключевые слова: Просвещение, социальные сети, знания, развитие, культура, духовность, меры борьбы, современные подходы к образованию, литература.

Abstract: This scientific article is aimed at analyzing the interconnection between the ideas of Enlightenment literature and social networks, their role and influence in modern society. The main goal of the article is to study the possibilities of effective dissemination of Enlightenment ideas through social networks, as well as to show the problems that may arise in this process and their solutions. The main principles of Enlightenment literature and trends in the use of social networks in Uzbekistan were taken as the object of research. The article considers the current issues of creating educational content and popularizing it on social networks, and offers suggestions on the effective use of social networks in instilling educational ideas in the minds of young people.

Keywords: Enlightenment, social networks, knowledge, development, culture, spirituality, measures to combat, modern approaches to education, literature.

Biz bilamizki, ma'rifatchilik madaniyat va ma'naviyat sohasidagi oqim bo'lib, uning negizini fan va bilim imkoniyatlariga bo'lgan katta ishonch tashkil etadi. Ma'rifatchilar bilimlar

yordamida ijtimoiy hayotdagi nomutanosibliklar va kamchiliklarni bartaraf etish mumkinligiga ishonganlar. Bu oqim mafkuraviy va ijtimoiy –falsafiy xususiyatga ega [1].

Ilm-fanni egallash va targ'ib qilish qadim zamonlardan boshlangan bo'lsa-da, ma'rifatchilik oqim sifatida G'arbda XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida, sharqda esa XIX ar oxiri – XX asr boshlarda shakllangan [1].

Qadimgi yunonistonda Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotel, Qadimgi Xitoyda Konfutsiy, O'rta Osiyoda Koykovus, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalar faning ulkan ahamyatini e'tirof etib, uni keng targ'ib qilganlar ularning g'oyalari tom ma'nodagi ma'rifatchilik g'oylari edi [1].

Ma'rifatchilik G'arbda ham, sharqda ham bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan. U diniy aqidaparastlikka qarshi qaratilgan va turlicha davom etgan. G'arb ma'rifatchilikning Volter, Monteskye, Kondilyak, Lametri, Golbax, Didro, Gelvetsii, Mabli, Morelli, Kondorse kabi vakillari diniy aqidaparastlikni tanqid qilish bilan cheklanganmay umuman dinga qarshi kurash olib borganlar. G'arb ma'rifatchiligi dahriylik xususiyatini kasb etgan [1].

Sharq ma'rifatchiligi esa umuman dinga qarshi emas, balki diniy aqidaparastlikka qarshi bo'lgan . Sharqdagi ma'rifatchilikning yirik namoyondalari Ismoilbek Gasprinskiy, Zakiy Balidiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Munavvarqari, Abdulla Avloniy kabi zotlar diniy aqidaparastlikka qarshi keskin kurash olib borganlar, ammo bu kurash dahriylik mavqeidan emas, mo'tadil dindorlik mavqeidan olib borilgan . Ularning ko'rschigi dindor, ba'zilar esa diniy ulamo bo'lgan [8.5]

G'arb ma'rifatchilari ko'proq tabiiy fanlarga murojat qilishgan bo'lsa Sharqda faqat tabiiy fanlarga emas , umuman ilm – fanga sog'lom fikrga , mantiqqa murojat qilishgan, ular xalqni ro'shnolikka chiqarishning asosiy yo'li – uni savodli qilish, ortiqcha sarf-xarajatlar talab qiladigan marosimlarga qarshi kurashda deb bilishgan. Shu bilan birga, ular diniy aqidaparastlikka qarshi kurashda faqat dunyoviy fanlardan emas, Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislaridan ham foydalanishgan [8,5] .

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgach, ma'rifatchilarga istiqloqlarning ma'naviy-nazariy asoschilari deb baho berish ustuvorlik qila boshladi. Tom ma'noda aytganda , ma'rifatchilar xaqlimizning madaniy , ma'naviy rivojlanish tarixida katta o'rin tutadi [1].

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning yuzaga kelishi va ulardan keng miqiyosda foydalanish bilan bir qatorda insonyat yangi tarixiy bosqichga oyoq qo'ydi. Globalashuv jarayonlari bilan birga ijtimoiy tarmoqlar nafaqat kundalik hayotning , balki ta'lim , ma'rifat va ma'navyatning ham ajralmas qismiga aylanadi. Bugungi kunda dunyo miqiyosida har kuni milliardlab insonlar ijtimoiy tarmoqlarga murojat etmoqda , ular orqali yangiliklardan xabardor bo'lishmoqda, bilim olishmoqda va muloqat qilishmoqda. Jahon miosida 3 milliardga yaqin odam turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi O'zbekistonda esa Telegram ijtimoiy tarmog'i hozirgi kunda 18 million kishiga xizmat ko'rsatmoqda. Platformalar bo'yicha dunyo va O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soniga e'tibor beraylik [2].

Dunyoda	O'zbekistonda
Fesebook 2.4 milld	686,400
Instagram 1 milld	1,586,500
Telegram 200 mln	18 milln
Research Gate 20 milln	Ma'lum emas

Ijtimoiy tarmoqlarning ma'rifiy vositasi sifatidagi ahamiyati ijtimoiy hayotimizda naqadar beqiyosdir. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat odamlar o'rtasida muloqot vositasi, balki kuchli ta'lim vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy tarmoqlar orqali dars berish, bilim almashish va ilmiy hamkorlar yo'lga qo'yish, keng avj oldi. Xususan pandemiya davrida onlayn ta'limning ahamiyati yanada oshdi, bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o'ynaydi.

Ma'sofaviy ta'lim, onlayn kurslar va veb – seminarlar o'tkazish imkoniyatlari yaratildi. O'qtuvchilar va olimlar uchun esa ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z bilimlarini ulashish yangi g'oyalarni tarqatish va xalqaro miqiosda aloqalarni yo'lga qo'yish imkoni paydo bo'ldi.

Akademik sohada esa ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati ayniqsa beqiyosdir. Xalqaro miqiyosda ilmiy faolyatni olib borayotgan olimlar uchun maxsus ijtimoiy tarmoqlar yaratilgan. Research Gate va Academia, edu kabi platformlar orqali olimlar o'z ilmiy ishlarini nashr etishlari, hamkasrlarga savollar berishlari, yangi loyihalar uchun hammulliflarni topishlari mumkin. Bu platformalar butun dunyo bo'ylab tengdoshlardan fikr-mulohazalarni olish, ilmiy muhokamalar olib borish imkoniyatini beradi [3].

Research Gate tarmog'i orqali olimlar nafaqat o'z ishlarini tarqatishlari, balki boshqa olimlarning ilmiy ishlari bilan tanishish, ularga o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Men deley platformasi esa bibliografik ma'lumotlarni boshqarish va ilmiy hamrohlik qilish qobiliyati tufayli butun dunyo olimlari orasida mashhur bo'ldi. Bir necha GB server maydoni katta hajmdagi ilmiy kontentni birdaniga saqlash imkoniyatini beradi. Bu platforma yordamida olimlar ilmiy adabiyotlarni tartibga solish, ularga istalgan payt va istalgan joydan kirish va o'z tadqiqotlarini boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'laoladi [4].

LinkedIn dunyodagi yetakchi universitetlar va tijorat tadqiqot markazlaridan eng yaxshi ish takliflarini topish uchun ideal platformadir. Bu platforma orqali olimlar nafaqat o'z ishlarini targ'ib qilishlari balki xalqaro loyihalarda ishlarini targ'ib qilishlarini balki xalqaro loyihalarda ishtirok etish yangi bilimlar olish va o'z ko'nikmalarini oshirish imkoniyatiga ham ega bo'lishadi [4].

Ijtimoiy tarmoqlarning inson ongiga psixologik tasiri shundan iboratki, u foydalanuvchilarga nafaqat keng ko'lamli bilim olish imkoniyatlarini beradi, balki ularning psixologik salomatligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt sarflaydigan shaxslarda ruhiy tushkunlik, nomuvozanatlik va boshqa psixologik muammolar ko'proq uchraydi. Ayniqsa, yoshlar va o'smirlar orasida bu muammolar keng tarqalgan. Yaponiyada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy tushkunlik holatlari ko'proq kuzatiladi [4].

Vertual muhit insoning dunyo qarashini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Inson ongi vertual dunyoda haqiqat bilan uydirma o'rtasida farq qila olmasligi mumkin. Bu uydirma o'rtasida farq qila olmasligini mumkin. Bu esa uning kundalik hayotida xatti – harakatlarida va qarashlarida salbiy o'zga rishlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar ongi nisbatan osonroq ta'sirga uchraydi, ular notog'ri ma'lumotlar va g'oyalarga ko'proq berilishadi. Buzg'unchi g'oyalarruhidagi kompyuter uyinlari tutilmas narsalar bilan vaqtini bekor o'tkazish, yoshlarning ruhiy va ma'naviy salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Badiiy asar

qahramonlarining ma'naviy-tarbiyaviy ta'siri ular tafakkurida "Hechni keltirib chiqarmoqda". (4)

Ijtimoiy tarmoqlardagi kontentning doimiy o'zgarib turishi va foydalanuvchining qiziqishini doimiy ushlab turishga qaratilgan algoritmlar uning diqqatini jamlash qobiliyatiga albatta, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumotlarni chuqur o'rganish o'rniga sirtqi ma'lumotlarni tezda o'qib chiqish ko'nikmasini tarbiyaladi. Bu esa talabalar va tadqiqotchilarning bilim olish samaradorligini pasayishiga olib keladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazish jisman faollikning pasayishiga uyquning buzilishiga va ko'rish qobiliyatining yomonlashishiga sabab bo'ladi.(4).

Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat individual balki butun jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan zararli axborotlar, jumladan, iqtisodiy va moliyaviy firibgarlik, diniy ekstremizm va siyosiy manipulatsiyalar oddiy foydalanuvchilar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. O'zini bank hodimi deb tanishtirib, odamlardan, shaxsiy ma'ulmotlarini so'rayotgan firibgarlar, soxta xabarlar orqali adashtiruvchi feyk akkauntlar vahimali ahborotlar bilan odamlarni ruhiy bosimga solayotgan kimsalar-bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda.

Eng xavfli jihati-yoshlar orasida diniy va siyosiy eksteremistik g'oyalarning tarqalishi, ularni g'arazli guruhlar tomonidan mafkuraviy qurol sifatida ishlatishga urinishlardir. Yoshlar va axborotga tanqidiy yondashish ko'nikmalari yetarli bo'lmagan shaxslar bu kabi tahdidga nisbatan ko'proq osonlikcha ta'sirlanadi. Bu nafaqat yoshlarning shaxsiy xavfsizligi balki butun mamlakatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi uchun ham jiddiy xavf tug'diradi.(6).

Ijtimoiy tarmoqlardagi xavfli omillarga qarshi kurashishlarda bir qancha rivojlangan davlatlarning tajribalari juda qimmatlidir. Masalan, Finlyandiyada har bir maktab o'quvchisi axborot manbalarini, tahlil qilishni o'rganadi. Ular axborot qanchalik ishonchli ekanini mustaqil baholay oladi. Ushbu mamlakat media savodxonlikni milliy ta'lim tizimida muvaffaqiyatli integratsiya qilgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2019-yili qabul qilingan "Media literacy in Finland" siyosatiga muvofiq, media ta'lim maktabgacha ta'limdan, boshlab barcha darajalardagi ta'lim dasturlariga kiritilgan. Bu orqali talabalar axborot manbalarini tahlil qilish, feyk yangiliklarini aniqlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatida ega bo'lmoqda. (5).

Germaniyada "Ijtimoiy tarmoqlarda nafratga qarshi kurashish" qonuni qabul qilingan bo'lib, uni buzgan platformada juda katta jarima solinadi. 2017 yili qabul qilingan "Network Enforcement Act" (NetzDG) qonuni ijtimoiy tarmoqlarda nafrat nutqi va soxta yangiliklarga qarshi kurashishni maqsad qilgan. Ushbu qonunga muvofiq, ijtimoiy tarmoqlar 24-soat ichida "Ochiqdan-ochiq noqonuniy" kontentni o'chirishi shart, aks holda 50 million yevrogacha jarimaga tortilishi mumkin. Bu choralar ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontentni kamaytirishga qaratilgan.(7).

Yaponiyada hatto kichik yoshdanoq internet xavfsizligi asoslari o'rgatiladi-bu o'quv dasturida kiritilgan. Eng qizig'i, maktab darslariga o'quvchi telefon bilan qo'yilmaydi. Bu chora talabalarning dars jarayonida diqqatini jamlashga yordam beradi, shu bilan birga ularning ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt o'tkazmasligini ta'minlaydi. (7).

O'zbekistonda ham bu masalada jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Aholining media va axborot savodxonligini rivojlantirish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. 2024 yili ilk bor umumilliy axborot kompaniyasi muvaffaqiyatli tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi shafeligida "Yangi media ta'lim markazi" nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan o'tkazilgan axborot kompaniyasi doirasida qator universitetlar professor-o'qituvchilari, talabalari, milliy va mahalliy OAV vakillari, yetakchi blogerlar va inflyuenserlar, hatto taniqli tibbiyot xodimlari faol ishtirok etib, dezenformatsiya va feyk yangiliklarning oldini olish haqidagi mediya tadbirlarda, davra suhbatlarida qatnashdilar.

2025-yil 17-18-aprel kunlari Qozog'istonning Kaskelen shahridagi SDG universitetida "O'zgarayotgan dunyoda Markaziy Osiyo: agentlik, huquqiy muammolar va OAV manzarasi" nomli xalqaro ilmiy konferenstya bo'lib o'tdi. Unda dunyoning turli mintaqalaridan kelgan yetakchi olimlar va ekspertlarning ma'ruzalari tinglandi. Bu esa mintaqaviy hamkorlikning rivojlantirishiga hissa qo'shdi.

Shunga qaramay, ijtimoiy tarmoqlardan ma'rifiy g'oyalarni targ'ib qilishda samarali foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

➤ -Interaktiv kontent yaratishi: Ma'rifiy mavzularni qiziqarli viktorinalar, infografikalar, qisqa videolar va jonli efirlar orqali taqdim etish. Bu yoshlarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

➤ Mashhur shaxslar va brogerlar bilan hamkorlik Ma'rifiy g'oyalarni keng auditoriyaga yetkazish uchun ijtimoiy tarmoqlarda katta obunachilarga ega bo'lgan shaxslar bilan hamkorlik qilish.

➤ Munozara maydonchalari yaratish: Ma'rifiy mavzular bo'yicha ochiq, munozaralar forumlar va guruhlar tashkil etish orqali fikr almashish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

➤ Qisqa va ta'sircha formatlar: Ma'rifiy g'oyalarni qisqa, ammo mazmunli postlar, tvitlar va hikoyalar orqali yetkazish, bu esa tezkor axborot iste'moliga mos keladi.

➤ Haqiqiy ma'lumotlarni targ'ib qilish: Yolg'on ma'lumotlarga qarshi kurashish va ishonchli manbalarga asoslangan ma'rifiy kontentni doimiy ravishda taqdim etish. Darhaqiqat, ma'rifatchilik adabiyotining asosiy g'oyalari ilm-fan, ma'naviyat, adolat va taraqqiyotga intilish zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar ma'rifiy g'oyalarni keng omma orasida, ayniqsa yoshlar orasida tarqatish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu platformalarda yetkazilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'rifiy g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishda va ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish muhimdir. Zamonaviy yoshlar yoshlar uchun dolzarb bo'lgan masalalar, masalan, shaxsiy rivojlanish, kasb tanlash, ekologiya, sog'lom turmush tarzi kabi mavzularni ma'rifiy nuqtai-nazardan yozilish orqali ularning e'tiborini jalb qilish mumkin. Bu jarayonda ma'rifatchilik adabiyotining boy merosidan foydalanish, uni zamonaviy kontekstda moslashtirib taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Ma'rifatchilik (n.d.) Vikipediya. Retrieved from https://uz.Vikipediya.org/wiki/Ma%Ca%DC_rifatchilik.



2. O'zbekistonliklar eng ko'p qaysi ijtimoiy tarmoqdan foydalanadi? (2022. Yanvar 31). Qalampir.uz. Retrieval from <https://qalampir.uz>.
3. O'zbekistonda qaysi ijtimoiy tarmoqdan eng ko'p foydalanishadi? (2025, aprel 27).
4. Ijtimoiy tarmoqlar: zamonaviy qulaylikmi yoki xavfli qurol? (2025, Aprel 29) nhrc.uz.
5. Kurss, D.J. Griffiths, M.D (2017). Social Networking Sites and Addicti: Ten Lessons Learned. International Journal of Environmental Research and Public Health, 14 (30, 311).
6. Botirboyeva S. Asadova C. (2024) . Ijtimoiy tarmoqlarning inson ongiga ta'siri. Resheniye sotsialnqx problem v upravlenii i ekonomikeyu 3 (II)b 156-160.
7. Vosoughi, S, Roy, D ,Aprel, S (2018). The spreadd of true false neo's online. Science, 359 (6380),1146-1154).
8. Jaborov E. Jahon ma'rifatchilik adabiyoti: G'arbiy Yevropa va o'zbek adabiyotining qiyosiy tahlili. Fil.fan.bo'yicha falsafa dokt.diss.Avtoreferati T, 2023